

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGIGA OID MATNLARIDA KO‘RSATISH HODISASINING XUSUSIYATLARIGA DOIR

Bozorova Munisa

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti doktoranti

Annotatsiya — Ilmiy matnda muallif o‘zining nutqini qisqa ravon va izchil bayon etishi lozim. Ilmiy matnlarga xos bo‘lgan atamalardan foydalanish matnni to‘liq shakllantirsada, ba’zi holatlarda ulardan foydalanishni ham kamaytirish lozim bo‘ladi, mazkur holatda ularni ko‘rsatish vositalaridan foydalangan holda bayon qilish matnni mazmunini boyitadi. Mazkur maqola qishloq xo‘jaligiga oid ingliz va o‘zbek tilidagi matnlarda ko‘rsatish xususiyatining ba’zi holatlarini ko‘rib chiqadi va ular o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlarni ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar — deysis, anafora, qishloq xo‘jaligiga oid matn, ilmiy matn, ko‘rsatish, diskurs.

1. KIRISH

Har bir nutq ijodkori (matn muallifi) voqelikda kechayotgan hodisani o‘zicha idrok etadi, uni ma’lum makon, zamon hududida tasavvur qilib, hosil bo‘lgan mantiqiy tasavvurga lisoniy libos beradi. Lisoniy voqelanish va mazmun shakllanishi nutq muallifi tanlagan “sanoq boshi”, ya’ni kechayotgan hodisani zamon-makon maydoniga joylashtirish bilan bog‘liqdir. Demak, nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqelik bilan bog‘lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ehtiyoji tug‘iladi. Xuddi shu vazifalar ijrosi deytik vositalar zimmasidadir [6, 174].

2. ASOSIY QISM

“Deyksis” so‘zining asl yunoncha ma’nosi “ko‘rsatish”, “ishora” bo‘lib, ilmiy qo‘llanishda lison vositasida “voqelikka ishora, ko‘rsatish” mazmunini olgan. Ko‘rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni deytik ibora deb atashadi. Bu iboralarga nisbatan ayrim faylasuf va tilshunolar “indeksikallar” (indexicals) atamasini ham qo‘llab kelishmoqda. Ushbu turdagi iboralar nutqiy muloqot tizimi mazmundorligini ta’minlovchi doimiy vositalardan biridir. Masalan, biror bir notanish narsani ko‘rib qolib, “Bu nima?” savoli bilan suhbatdoshga murojaat qilinganda, deytik ibora (“bu”) vositasida shu muhitda mavjud bo‘lgan narsa-predmetga ishoradir [1, 24].

Bu jihatdan rus olimi B.A.Serebrennikovning deysis haqidagi quyidagi fikrlari o‘rinli: “Deyksis inson nutqiy faoliyatining o‘ziga xosligidir. Jonsiz narsalar olamida hech qanday deytik vositalar uchramaydi va bunga ehtiyoj ham mavjud emas. Bir predmetning boshqa predmetlardan ajratib ko‘rsatilishi, uning o‘rniga ishora qilinishi bilan predmet o‘z xususiyatini o‘zgartirmaydi. Insonga deysis nutq mo‘ljali olish uchun zarur. Deytik birliklardan mahrum etilgan nutq tinglovchi uchun umuman tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin” [7,24].

Har qanday qo‘shimcha jiloli so‘zlardan holi tarzda tarkib topuvchi ilmiy matnlar o‘zlarida kerakli ma’lumotni to‘plab o‘quvchiga yetarli ma’lumotni taqdim qilsada, ilmiy matnlarni faqatgina atamalardan iborat deyish ham noo‘rindir. Ya’ni ilmiy matn tarkibida ham muallif o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan masalar bayonini deytik belgilar ko‘magida berishi mumkin.

Deyksis nutqda til birliklarning ishoraviylik xususiyatini namoyon qiluvchi hodisadir. Ishoraviylik vazifasini lingvistik va ekstralingvistik vositalar orqali bajaruvchi deysis tilning belgilar tizimi sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi [4, 12].

Qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy matnlarda shaxsni deytik vositalar bilan ko‘rsatish vazifasini ingliz tilida kishilik va egalik olmoshlari bajaradi: By observing individual fields over years, we can understand the effects of crop rotation, tillage practices, soil amendments, and removal of harvested material on soil properties. (Crop ecology 14)

O‘zbek tilida bu vazifani nafaqat kishilik olmoshlari vositasida balki egalik qo‘shimchalarining o‘zi ham belgilab kela oladi: O‘z tajribalarimizda nuxatning Yulduz, O‘zbekistanskiy-32 va Umid navlarini har xil (25-fevral, 5-mart, 15-mart, 25-mart,5-aprel,15-aprel) muddatlarda va 60x6 ekish sxemasida ekilganda ekin ildizining biomassasini tuproq gorizontlari bo‘yicha tarqalishini o‘rgandik. 899

Ingliz tilida uchinchi shaxsni birlik shakli turlicha kela olsa, o‘zbek birlikdagi uchinchi shaxs yagona shaklda ifodalanadi: u. Mazkur kishilik olmoshi o‘zbek tilida jonli va jonsiz, inson yoki predmetni ajratmaydi, ya’ni ularning barchasi uchun referent bo‘lib kela oladi: Johannsen observed that the Princess cultivar in common bean had seeds that differed in their weight. He then developed 19 lines by saving progeny from each of 19 single seeds from the original seed lot. (Essentials of plant breeding 78.).

I.V.Michurin bilan bir vaqtda Amerika seleksioneri Lyuter Ber-bank duragaylash va tanlash usullari ustida ilmiy tadqiqotlar o’tkazadi. U har bir chatishtirish juftlari bo’yicha juda ko’p nihollar o’stirib, ular ichida qat’iy tanlash olib bordi va turli ekinlarning bir qator mashhur yangi navlarini yaratish imkoniyatiga ega bo’ldi ((X.Otaboyeva. O’simlikshunoslik, Toshkent-Mehnat 2000. B. 205).

Voqelik bayonida zamon – makon – ijtimoiy mavqe markazlari muloqot shaxsi tomonidan belgilanadi [6, 178]. Ilmiy matnlarda makon deysisining qo’llanilish miqyosi badiiy uslubdan yoki muloqot jarayonidan farqlanadi. Bunga sabab esa uning bevosita muloqot jarayonida emas, balki matn tarkibida kelishidir. So’zlovchi- muallif iodalayotgan makon ko’rsatkichlari faqatgina matn komponentlari aloqasidan kelib chiqadi. Ingliz tilidagi qishloq xo’jaligiga oid matnlarda makon tushunchasi bevosita matn ichidagi vosita sifatida kelib ularga ishorani belgilaydi Ingliz tilidagi ilmiy matnlarda makon deysisi sifatida this/that here/there kabilar qo’llanilishi mumkin: Here, it was worth noting that during the chelation process, the chelating agent properties, such as ionic diameter, ring size, hardness or softness and deformability of the electron donors and the acceptors, are of great importance.(Journal of agriculture and food research 12 2023 100552. P.4)

O’zbek tilida qishloq xo’jaligiga oid matnlarda makon deysisini ifodalashda bu, yuqoridagi quyidagi kabi so’zlardan foydalaniladi. Bunda berilgan “yuqoridagi” so’zi matndan kelib chiqqan holda anglashiladi va makonning ma’nosini berish faqatgina matn doirasi bilan cheklanadi: Yuqorida ko’rsatib o’tilgan yerlardan unimli foydalanish uchun melioratsiya tadbirlari zaruriy omillardir (Qishloq xo’jalik melioratsiyasi T.2007 B4).

G.Yul aytganidek, “deyktik iboralar, chegaralangan miqdorda bo’lishlariga qaramasdan, keng ko’lamda qo’llanadilar va ular har bir alohida qo’llanilishiga nisbatan ko’proq kommunikativ mazmun ifodalaydilar” [1, 16].

Ilmiy matnlar uchun harakterli bo’lgan holatlardan yana biri bu diskurs deysisidan foydalanishdir. Diskurs deysisi ingliz tilidagi va o’zbek tilidagi qishloq xo’jaligiga oid matnlarda uchraydigan mahsuldor deysis turi deya qayd etish ham mumkin. Sababi, matn tarkibida kelgan holda ishorani belgilab bera olishi bilan u anafordan farqli tarzda oz’dan oldingi referentning bo’lishini talab qilmaydi. Ingliz tilida bu kabi so’zlar this, that bilan ifodalanadi: This short review aims to provide theoretical guidance to design and prepare hydrogels for applications in water treatment. (Journal of agriculture and food research 12 2023 100552.P.1).

O’zbek tilida qishloq xo’jaligiga oid matnlarda diskurs deysisi vazifasini bu, mazkur, bu o’qinda kabi so’zlar bajaradi: Bu qoida hozirgi vaqtda mavjud adabiyotlarda ham, chet el adabiyotida ham qabul qilingan. (S.A. Azimboev Dexqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari Toshkent 2006. B-36).

Deyksis nazariyasi tahliliga oid ko’plab tadqiqotlarda asosiy e’tibor deysis va anafora munosabati masalasiga qaratiladi. Bunday ishlarda real muloqot jarayonida nutq ishtirokchilariga ishorani anglatuvchi deysis sof, asl deysis sifatida tavsiflansa, matn qismlariga ishora qilish orqali ularning semantik-sintaktik jihatdan bog’lanishiga xizmat qiluvchi deysis anafora sifatida e’tirof etiladi [5, 18].

Albatta, ilmiy uslubdagi obrazlilik bilan badiiy uslubdagi obrazlilik farq qiladi. Ilmiy uslubda obrazli nomlar faqat nominativ atash funksiyasini , badiiy adabiyotda esa o’quvchiga estetik ta’sir ko’rsatish vazifasini bajaradi. Obrazlilik (emotsionallik) kategoriyasi agar ilmiy uslubda “so’ngan, nursiz” holda ko’rinsa, badiiy adabiyotda esa jonli tarzda namoyon bo’ladi. Ilmiy texnik bayon ilmiy- tabiiy bayondan yoki qat’iy ilmiy bayon ilmiy- ommabop bayondan ma’lum darajada farqlanadi. Bu tafvutlar bayon qilish situatsiyasi va bayon qilish “material” idan kelib chiqadi. Binobarin, tabiiy- ilmiy, ilmiy- ommabop va ilmiy- matematik bayonlar ilmiy uslubning ko’rinishlari bo’lganligi uchun, ular ilmiy stilga xos umumiy, yaxlit xususiyatlarga ega bo’ladi [10, 47].

Deyktik so’zlar mazmuni bevosita muloqot sharoitida shakllanishi hamda suhbatdosh yoki o’quvchiga ushbu muloqot vaziyati haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lishiga imkon yaratuvchi omillardir [9, 11]. J.K.Milner kishilik va ko’rsatish olmoshlarining deyktik referensiya yohud anaforik refensiya shaklida qo’llanilganda ularning mustaqil ma’noga ega bo’la olmasligini ta’kidlaydi [8, 62]. Ular o’zlarining asl ma’nolarini bunday ifoda usulida namoyon eta olmaydilar va shu sababli Milner ularni avtonom referent sifatida ko’rish kerak deb aytadi. Mazkur sabab tufayli ularni aktual referent sifatida ko’rib bo’lmaydi , ular faqatgina o’zidan oldingi yoki keyingi bildirilayotgan so’zning o’rindoshi sifatidagina kela oladi deb aytib o’tgan. Bu kabi fikrlarni E. Benvenist, P.Riker ham qayd etgan edi. Benvenistning fikriga ko’ra, kontekstdan olingan olmosh “na obyekti na tushunchani ifodalaydigan bo’sh shakl hisoblanadi (forme vide)”. [2, 186] P.Riker kishilik olmoshlarini “asemantik” deb ataydi, ya’ni ular o’z ma’nolariga ega bo’lmagan holda qo’llanadilar [3, 14]:

Qishloq xo’jaligiga oid ilmiy matnlarida anaforaning qo’llanilishi odatiy hol sifatida qaraladi. Ilmiy matn tarkibida anafora hodisasi matnning zerikarli va tushunarsiz bo’lishdan saqlaydi. Ingliz tilida uchunchi shaxs olmoshi “it” anaforik holatda qo’llaniluvchi eng mahsuldor so’zdir.boisi, bunda “it” olmoshi birginia so’z emas, balki so’z birikmasi yohud butun bir gapning referenti bo’lib kelishi mumkin: A breeding program refers to the overall organization of a breeding process. It encompasses not only specific methods used for cultivar development, but also how resources allocated and how phenotyping and marker based selection are conducted to achieve breeding objectives. (Essentials of plant breeding.205)

O’zbek tilida “u” va “bu”, olmoshlari eng ko’p anaforik holatda qo’llaniluvchi olmoshlardir: Donli-boshqoli ekinlar rivojlanishi uchun shimoliy va g’arbiy qiyaliklarda tuproqning mo’tadilroq gidrotermik rejimi yaratiladi, chunki ular bahorning oxirgi davrigacha janubiy va sharqiy qiyaliklarga qaraganda ko’proq namlikka ega bo’ladilar va saqlab turadilar. (Iqlim o’zgarishi sharoitida yer resurslarini barqaror boshqarish respublika ilmiy-amaliy seminar b. 89). [3]

3. XULOSA

Yuqorida berilgan misollardan kelib quyidagi xulosaga kelish mumkin. Ingliz va o‘zbek tillaridagi qishloq xo‘jaligiga oid matnlarda ko‘rsatish xususiyati ko‘plab holatlarda deytik iboralar vositasida beriladi. Ilmiy matnlarga xos bolgan izchillik va matnni ortiqcha hissiy bo‘yoqlarsiz tasvirlash sharoitida deytik vositalar muallifni yoki boshqa manbalarni berishda shaxs deyskisi ko‘mak beradi. Matn ichidagi bog‘lanishlarni berishda esa makon va diskurs deyskisi o‘quvchiga kerakli yo‘nalishni bera oladi. Ko‘rsatish xususiyati haqida gap ketganda anaforaning qishloq xo‘jaligiga oid matnlarda o‘z o‘rniga ega ekanligini ham ko‘rib chiqdik. Ular muallif fikrining takror va takror qo‘llanilishidan va matnning zerikarli bo‘lishidan asraydi.

4. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] Yule G. *Pragmatics*. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138p.
- [2] Бенвенист Э. *Общая лингвистика*. – М.: Прогресс, 1974. – 447 с.
- [3] Волков Н.Н. Семантика и дейктические функции личных местоимений в современном английском языке: автореф. дис. канд. филол. наук / Н.Н. Волков. – М., 1984. – С.23.
- [4] Давлатова Р.Х. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. Фанл. Докт (DcS)...автореф. Тошкент: Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти. 2020. – 33 б.
- [5] Кибрик А.А. Об анафоре, дейксисе и их соотношении. // Разработка и применение лингвистических процессоров: сб.науч.тр. – Новосибирск: Вычислительный центр СО АН СССР, 1983. – С.107-129; Муковский О.Л. Дейксис и анафора в русском, английском и испанском языках. Дисс. ... канд.филол.наук. – Санкт-Петербург, 2015. – С.14-47.
- [6] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008. – 285 б.
- [7] Серебренников Б. А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и мышление. – М.: Наука, 1988. – С.146.
- [8] Сребрянская Н.А. Дейксис в единицах языка: монография / Н.А.Сребрянская. Воронеж: Изд-во ВГПУ, 2003. – 136 с.
- [9] Шерматов А.А. Инглиз илмий – техник матнда дейксиснинг ифодаланиши: Филол. Фанл. Номз....автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 22б.
- [10] Ўзбек тили стилистикаси (ўқув қўлланма) / Тузувчилар: А.Шомақсудов, И.Расулов, Р.Қўнғуров, Ҳ.Рустамов. – Тошкент, 1983.- 248б
- [11] Asror, Y. (2023). LINGUISTIC AND LEXICOGRAPHIC DESCRIPTION OF JOURNALISTIC TEXTS. Журнал: Союз Науки и Образования, 5(1), 6-8.
- [12] Kuldoshev U.U. (2022). MODERN TRANSLATION STUDIES: PROCEDURES, PRINCIPLES AND STRATEGIES. Вестник магистратуры, (11-5 (134)), 111-115.
- [13] Bakiev, F. (2024, February). LEXICAL CORRESPONDENCE ISSUES IN UZBEK-ENGLISH TRANSLATION STUDIES. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 478-481).
- [14] Nuritdinova, P., & Shermatova, B. (2024). THE IMPACT OF CHATGPT ON THE TRANSLATION INDUSTRY. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 4(2), 345-347.
- [15] SHERMATOVA, B., ALIMOVA, S., & SHOKHRUKH, O. Simultaneous Translation and Its Issues. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(09), 37-39.
- [16] Fazlidinovich, M. S. (2022). THE LINGUISTIC AND STYLISTIC COMPARATIVENESS OF LANGUAGES IN LINGUISTIC TRANSLATION. *Science and innovation*, 1(JSSR), 169-176.
- [17] Fazlidinovich, M. S., & Nargiz, S. (2024). TRANSLATION FEATURES OF TEXTS RELATED TO PUBLICIST STYLE. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 93-95.
- [18] Муладжанов, Ш. (2023). Methods of transference stylistic units to the target language in literary texts. *Общество и инновации*, 4(11/S), 284-291.
- [19] Muladjanov, S. (2023). THE INTERRELATION OF STYLISTIC DEVICES AND PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH-UZBEK TRANSLATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 633-638.
- [20] Ilhomovna, K. M. (2024). GUIDELINES FOR COMPLETING TASKS IN INDEPENDENT WORK FOR STUDENTS OF LINGUISTIC UNIVERSITIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 336-339.
- [21] Ilhomovna, K. M., & Bakberganovna, M. M. (2024). TRANSLATING METONYMIES INTO UZBEK LANGUAGE USING VARIOUS TRANSLATION STRATEGIES ('THE GREAT GATSBY' BY F. SCOTT FITZGERALD'S). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 46(1), 212-216.
- [22] Khayrieva, M. I., & qizi Akhmedova, S. F. (2024). COHESION AND PRAGMATICS: INVESTIGATING (IM) POLITENESS STRATEGIES IN EMAIL COMMUNICATION. *GOLDEN BRAIN*, 2(11), 57-63.
- [23] Ziyadullaev, D., Muhamediyeva, D., Teshaboyev, M., To'ychiev, S., Kamolov, M. O., Bakhramova, Y., & Ziyodullaeva, G. (2023). Mathematical modeling and numerical calculation of an epidemic with medical vaccination in account. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 419, p. 02004). EDP Sciences.
- [24] Odilov, B. B., & Ziyadullayeva, M. (2023). SPECIFIC FEATURES OF THE ADDRESSING. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(3), 77-83.